

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“INKLYUZIV TA’LIM”

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Buxoro – 2025

Mazkur o'quv uslubiy majmua Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassalarining maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, filologiya va psixologiya ta'lim yo'nalishlarini bitirgan mutaxassislar **defektologiya(logopediya)** kasbiy qayta tayyorlash 5 oylik kursining Namunaviy o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'quv uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 yil 27-dekabrdagi 5–sonli yig'lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **M.M.Gadayeva** – katta o'qituvchi.

Taqrizchi:
Sh.Olimov – pedagogika fanlari doktori, professor.
U.A.Qosimov - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**O'quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024 yil 27-dekabrdagi 5–sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	12
III. NAZARIY MATERIALLAR	23
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	124
V. GLOSSARIY	128
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	136

ISHCHI DASTUR

Kirish

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

1.1. Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim berish xususiyatlari kursining maqsadi alohida yordamga muhtoj bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlar ehtiyojini qondirish va ijtimoiy hayotga moslashishga yo'naltirilgan hamda umumta'lim jarayoniga to'laqonli jalb qilish qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi bilan tanishtirishdan iborat.

Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim berish kursining vazifalari quyidagilardan iborat:

- huquqiy me'yoriy hujjatlarni o'rganish;
- resurs moddalar ish faoliyatini o'rganish va tashkil etish;
- inklyuziv ta'limni joriy etishda ota-onalar, maktab jamoasi va o'qituvchilar bilan ishlashni o'rganish;
- umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy qilish oldida turgan to'siq va muammolarni hal etish.

Kurs buyicha ma'ruzalar kasbiy qayta tayyorlov qilayotgan tinglovchilarga inklyuziv ta'lim unga bo'lgan ehtiyoj va uning sababalri, inklyuziv ta'limni joriy etishga doir huquqiy-me'yyoriy holatlar, inklyuziv ta'limni joriy etilishi. Asosiy bosim va tamoyillari, inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishdagi YAngi yo'nalishlar va islohotlar haqidagi nazariy bilimlar bilan tanishish imkonini beradi.

Ma'ruzalarda tinglovchilalr «Bolalar huquqlari to'g'risidagi konventsiya», O'zbekiston Respublikasi konsititutsiya «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun, «Ta'lim hamma uchun» davlat dasturi hamda rivojlangan horijiy mamlakatlar ish uslublarini, qonun va me'yyoriy hujjatlari bilan tanishadilar.

1.2. Ushbu kursni o'rganish natijasida tinglovchilar quyidagi bilimlarni egallashlari lozim;

- kursning predmet va vazifalari;
- inklyuziv ta'limni joriy etishga bo'lgan ehtiyoji;
- inklyuziv ta'lim joriy etish tamoyillari;
- inklyuziv ta'lim tizimida mutaxassis kadrlarni tayyorlash;
- inklyuziv ta'limga oid ish qatorlarini o'rganish;
- inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish yo'llari.

1.3. Ushbu kursni o'qitishda pedagogika, psixologiya, maxsus pedagogika, maxsus psixologiya, maxsus metodikalardan olingan bilimlarga asoslaniladi.

1.4. YAngi pedagogik texnologiyalar, texnikaviy vositalarni qo'llash, tarqatma materiallardan foydalanish mazkur fanni o'qitish samaradorligini oshiradi.

Fan bo'yicha tinglovchilarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Bu kurs qayta tayyorlov qilayotgan tinglovchilarga inklyuziv ta'limning mazmuni-mohiyatini ochib beradi; vazifalarini aniqlash; inklyuziv ta'limning integratsiyaion va maxsus ta'lim tizimidan farqli va afzallik tomonlarini yoritib beradi. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish yo'llarini o'ragatdi. Bu haqidagi bilimlar bilan tinglovchilarni qurollantiradi.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

« Inklyuziv ta'lim fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejada rejalashtirilgan umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, defektologiyaning klinik asoslari, maxsus psixologiya (surdopsixologiya, logopsixologiya, tiflopsixologiya, oligofrenopsixologiya), maxsus pedagogika fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Tinglovchilar nazariyada olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar maxsus muassasalaridagi amaliyotda takomillashtiradilar. Nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq etish ko'nikmalari hosil qilinadi. SHuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib defektolog-kadrlarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Tinglovchilarni «Inklyuziv ta'lim» fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur fanni o'qitish jarayonida zamonaviy metodlar, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llanilishi nazarda tutilgan.

- rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, shakllari, usullari, tamoyillari bo'yicha mavzularda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, BBB bunday fikrlash pedagogik texnologiyalardan;

- rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar maxsus korreksion mashg'ulotlar tashkil etish usullarini aniqlash, tahlil etish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda kichik guruh munosabatlari, PMK, FSMU, elkan 3 bosqichli intervyu gamburger texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi. Ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlarga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan qo'llaniladi.

Asosiy qism

Ish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- hisob-grafik ishlarini bajarish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish (case-study);
- maket, model, badiiy asar, musiqa va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tinglovchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1. Inklyuziv ta'lim kursining predmeti va vazifalari. Inklyuziv ta'lim haqida ma'lumot.

Bu kurs ta'lim olayotgan tinglovchilarga inklyuziv ta'limning mazmuni-mohiyatini ochib beradi; vazifalarini aniqlash; inklyuziv ta'limning integratsiyaion va maxsus ta'lim tizimidan farqli va afzallik tomonlarini yoritib beradi. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish yo'llarini o'ragatdi. Bu haqidagi bilimlar bilan tinglovchilarni qurollantiradi.

2. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va uning sabablari.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ham o'z sog'lom tengdoshlari qatori umumta'lim tizimida ta'lim olish huquqiga ega. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun har bir hududda maxsus maktablar etarli emas. Bu davomat byudjetidan juda ko'p mablag' talab etadi. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni nogiron tamg'asi ostida ijtimoiy muhitdan alohidalab qo'yish, ijtimoiy muhitdan alohidalab qo'yish, ularni ijtimoiy hayotga moslashishlarini imkoniyatlaridan foydalanishlarini chegaralab qo'yadi: joylarda ko'pchilik alohida yordamga muhtoj bolalar butunlay ta'lim tizimidan chetlanib qolishmoqda.

3. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash va amaliyotga joriy qilish borasidagi huquqiy-me'yyoriy hujjatlar.

va «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» da, «Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat nizomi», Xalq ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan «Ta'lim hamma uchun dasturi» kabilarda inklyuziv ta'lim masalalarining ko'rib chiqilishi.

4. Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari va ularning mazmuni.

Inklyuziv ta'limga maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni kiritishda bir qator jahon miqyosida e'tirof etilgan, amal qilinadigan va amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillariga tayaniladi:

- imkoniyatdan keng foydalanish;
- jamiyat hayotida qatnashishi huquqi;
- inklyuziv ta'lim jarayonida nogiron bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- ta'limning sifat va samaradorligi;
- hamkorlikda ishlash tamoyili;
- inklyuziv ta'limni joriy qilishda jahon tajribasini o'rganish tamoyili va boshqalar.

5. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.

Inklyuziv ta'limga maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni jalb etish uchun umumiy quyidagicha bosqichlarni bosib o'tmoq lozim:

1. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni izlab topish va yordam berish.
2. Inklyuziv ta'limni olib borish.
3. O'qituvchilarni tayyorlash.
4. Boshqarish va maslahatlar berish kabilar

6. Inklyuziv ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash siyosati

O'qituvchilarga nogiron bolalar, ularning toifalari, nogiron bolalarga korreksion-ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi yondoshuvning yo'llari metodlari xususida batafsil ilmiy bilimlar berish; nogiron bolalarga nisbatan ularda ijobiy munosabat uyg'otish; maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning huquqlari bilan doimiy tanishib borishlari uchun o'qituvchilarga sharoit yaratib berish zarur.

7. Inklyuziv ta'limni qo'llab quvvatlash.

Inklyuziv ta'limga jalb etish global muammolardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy qismi – bolalarga bilimi olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir. Maxsus ehtiyojli bolalarning hayotga ilk yoshdan ya'ni 6 yoshgacha e'tibor berilsa, ancha yuqori samaralarga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga mos bo'lgan siyosatni ishlab chiqish inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning asosidir.

8. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limiga jalb etishda o'quv reja dastur va darsliklarini moslashtirish.

- o'quv reja va dasturlarni bola imkoniyatiga moslashtirish;
- bolani qiziqishi, iqtidorini e'tiborga olinishi;
- umumiy o'quv rejaga qo'shimcha o'quv rejalarini kiritishi;
- ta'limning boshqaruv tamoyiliga amal qilish;
- bolalarga bir xil ta'lim berish, yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga qo'shimcha ya'ni individual yordam berish;
- bolalarni imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda yuqori darajali o'qitishni

tashkil etish;

- kerakli texnik vositalardan foydalanish mksadida ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkoniyatlar yaratish.

9. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishdagi yangi yo'nalishlar va islohotlar.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishda ikkita yondoshuv farqlanadi.

a/ an'naviy yondoshuv;

b/ inklyuziv yondoshuv;

ular bir-biri bilan tubdan farq qiladi.

inklyuziv ta'limda yangi fikrlarning talqin etilishi milliy islohot va maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun strategiyalarda aniq aks etishi kerak.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

«**Inklyuziv ta'lim**» fanida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlari o'quv rejada ajratilgan soatlar hajmida, shuningdek, dasturda ko'rsatilgan mavzular bo'yicha o'tkaziladi. «**Inklyuziv ta'lim**» fanida amaliy mashg'ulotlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Inklyuziv ta'limning mohiyati nima ekanligini va Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va uning sabablari tushintirish.

2. Tinglovchida dastlabki kasbiy malakalarni shakllantirish.

3. Tinglovchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

4. Tinglovchilarni mahsus ta'lim bo'yicha maktab o'qituvchilarining ish faoliyatini kuzatish, ilg'or tajribalarini va tahlil qilishga o'rgatish.

5. O'z ijodiy metodik ishlarini tajriba sinovdan o'tkazishga o'rgatish.

Amaliy mashg'uloti tinglovchi mavzu bo'yicha ma'ruzada nazariy ma'lumotlarni o'rganib o'zlashtirgan o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, amaliy mashg'ulotlari:

- tinglovchilarni nazariy bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatish;
- nazariyani amaliyot bilan bog'lay oishga yordam berish;
- tinglovchilarni qiyosiy tanqidiy tahlilga o'rgatish;
- tinglovchilarning faolligini oshirish;
- ularni ta'lim jarayonidagi turli muammolarni ijodiy yondoshgan holda mustaqil echa olishga tayyorlash;
- kasbiga bo'lgan munosabatini, kasbiy mahoratini oshirish zarur.

Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va uning sabablari .
2. Inklyuziv ta'lim va xalqaro huquqlar.

3. Inklyuziv ta'limni butun jahonda e'tirof etilishining mohiyati va bu ta'lim tizimining hamma uchun ochiqligi.

Inklyuziv ta'limning barcha jihatlarini (salbiy-ijobiy) va natijalarini amaliy o'rganib chiqish.

4. Inklyuziv ta'lim tamoyillari .
5. Inklyuziv ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash siyosati.
6. Inklyuziv ta'limda samaradorligini oshirishda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi (resurs o'qituvchi) ning o'rni va roli.
7. Inklyuziv ta'limni qo'llab quvvatlash.
8. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limiga jalb etishda o'quv reja dastur va darsliklarini moslashtirish.
9. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishdagi yangi yo'nalishlar va islohotlar.
10. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish oldida turgan muammolar va to'siqlar.
11. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda otalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash.
12. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga kiritishda maktab jamoasi, sinf rahbari va o'quvchilar bilan ishlash
13. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish yo'llari. Erkin ma'ruza qilish
14. Inklyuziv ta'lim bo'yicha ish tajribalarini o'rganish. (Halqaro miqyosidagi va O'zbekistondagi). Mustaqil o'rganish.

Inklyuziv ta'lim fanidan tahminiyl mustaqil ish vazifalari:

1. Integratsilashgan ta'lim va inklyuziv ta'lim o'rtasidagi farqlar.
2. "Inklyuziv ta'lim" kursining predmeti va maqsadi.
3. Inklyuziv ta'limni joriy qilish davr talabi sifatida.
4. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishga bo'lgan ehtiyojlar.
5. Inklyuziv ta'limning afzallik jihatlari.
- 6.
7. "Bolalar huquqlari to'g'riidagi Konvetsiya"da inklyuziv ta'lim masalalari va maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqlari.
8. Salamanka bayonoti va Ish faoliyati Rejasi-inklyuziv ta'limning me'yoriy asosi sifatida.
9. Dakar Dekloratsiyasi va uning mazmuni.
10. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilish masalalari.
11. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy qilishda amali qadamlar.
12. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
13. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
14. Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
15. Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
16. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
17. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

18. Malakaviylik tamoyili.
19. Izlab topish va jalb qilish bosqichi.
20. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichi.
21. Reabilitatsiya bosqichi.
22. Intergatsiya bosqichi.
23. Inklyuziv ta'lim tizimida zaruriy islohotlar mazmuni.
24. Kadrlar islohotida inklyuziv sinf o'qituvchisining vazifalari.
25. Inklyuziv ta'limda tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etish.
26. Inklyuziv ta'limda psixolog va shifokor-pediatric (psixonevrolog) ning faoliyati.
27. Resurs pedagog haqida tushuncha.
28. Resurs pedagogning maqsadi va vazifalari.
29. Resurs pedagogning ish rejasi.
30. Inklyuziv ta'limni joriy qilish ta'lim siyosatining ahamiyati.
31. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda zaruriy shart-sharoitlar masalasi.
32. Maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etishda qo'llab-quvvatlash masalalari.
33. Jahon miqyosida inklyuziv ta'limni jiroiy qilish oldida turgan muammolar.
34. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni jiroiy qilish oldida turgan muammolar.
35. Mavjud muammolarning echimlari.
36. Farg'ona viloyatidagi inklyuziv ta'lim tajribasini o'rganish.
37. Xorazm viloyati inklyuziv ta'lim tajribasini o'rganish.
38. "Inklyuziv ta'lim orqali bolaga do'stona munosabat o'rnatish" loyihasining mazmuni.

Dasturni infomatsion-uslubiy ta'minoti

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, kompyuter, diaproskop hamda didaktik materiallardan foydalaniladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy biotexnologiyada nanozarrachalarning o'rnini tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Fan mavzulari	Jami soat	Jami o'quv	Jumladan			Mustaqil ta'lim
				nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot	
1.	Inklyuziv ta'lim maqsad va vazifalari.	2	2	2			
2	Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish.	2	2		2		
3	Inklyuziv ta'lim tamoyillari	4	2		2		2
4	Inklyuziv ta'limning afzalliklari va kamchiliklari	2	2		2		
5	Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari .	6	4	2	2		2
6	Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.	4	4	2		2	
7	Inklyuziv ta'lim jarayonida ta'lim muassasalari va oila hamkorlogida ishlash	6	4	2		2	2
8	Inklyuziv ta'lim jarayonida ta'lim muassasalari va oila hamkorlogida ishlash	2	2		2		
9	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'mga jalb etishda tibbiy -pedagogik – psixologik komissiyaning roli .	4	2	2			2
10	Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni Ink inklyuziv ta'lim jarayonida o'qitishda metodik va didaktik ta'minotni yaratish	4	4		2	2	
12	Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida o'qitishda metodik va didaktik ta'minotni yaratish	4	2		2		2
	Jami	40	30	10	14	6	10

Ma'ruza mavzulari

1. Inklyuziv ta'lim kursining predmeti va vazifalari. Inklyuziv ta'lim haqida ma'lumot. 4s

Bu kurs oliy ta'limning magistratura darajasida ta'lim olayotgan tinglovchilarga inklyuziv ta'limning mazmuni-mohiyatini ochib beradi; vazifalarini aniqlash; inklyuziv ta'limning integratsiya va maxsus ta'lim tizimidan farqli va afzallik tomonlarini yoritib beradi. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish yo'llarini o'ragatdi. Bu haqidagi bilimlar bilan tinglovchilarni qurollantiradi.

2. Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari va ularning mazmuni.2s

Inklyuziv ta'limga maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni kiritishda bir qator jahon miqyosida e'tirof etilgan, amal qilinadigan va amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillariga tayaniladi:

- imkoniyatdan keng foydalanish;
- jamiyat hayotida qatnashishi huquqi;
- inklyuziv ta'lim jarayonida nogiron bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- ta'limning sifat va samaradorligi;
- hamkorlikda ishlash tamoyili;
- inklyuziv ta'limni joriy qilishda jahon tajribasini o'rganish tamoyili va boshqalar.

3. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.2s

Inklyuziv ta'limga maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni jalb etish uchun umumiy quyidagicha bosqichlarni bosib o'tmoq lozim:

1. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni izlab topish va yordam berish.
2. Inklyuziv ta'limni olib borish.
3. O'qituvchilarni tayyorlash.
4. Boshqarish va maslahatlar berish kabilar

4. Inklyuziv ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash siyosati2s

O'qituvchilarga nogiron bolalar, ularning toifalari, nogiron bolalarga korreksion-ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi yondoshuvning yo'llari metodlari xususida batafsil ilmiy bilimlar berish; nogiron bolalarga nisbatan ularda ijobiy munosabat uyg'otish; maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning huquqlari bilan doimiy tanishib borishlari uchun o'qituvchilarga sharoit yaratib berish zarur.

5. Inklyuziv ta'limga oid ish tajribalarini o'rganish. (jahon miqiyosida va O'zbekiston Respublikasida).2s

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish Respublikamizning ayrim viloyatlarida, jumladan Farg'ona, Andijon, Xorazm, Toshkent viloyatida tajriba sinov ishlari boshlangan bo'lib, bu ishlarni amalga oshirishda nodavlat jamoalar, xorijiy tashkilotlar tashabbus ko'rsatmoqda. Halkar YUNESKO tashkiloti va Xalq Ta'lim Vazirligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining ta'lim muassasalarida inklyuziv-korreksion ta'limning tayanch punktlari tashkil etildi. Ular aloxida yordamga muxtoj bolalar ta'limi bilan shug'illanuvchi, "Inklyuziv ta'lim" dasturini amalga oshiruvchi yagona punktlar hisoblanadi.

Amaliy mashgu'lotlar

1. Inklyuziv ta'limning mohiyati. lyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va uning sabablari 2s

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ham o'z sog'lom tengdoshlari qatori umumta'lim tizimida ta'lim olish huquqiga ega. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun har bir hududda maxsus maktablar yetarli emas. Bu davomat byudjetidan juda ko'p mablag' talab etadi.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni nogiron tamg'asi ostida ijtimoiy muhitdan alohidalab qo'yish, ijtimoiy muhitdan alohidalab qo'yish, ularni ijtimoiy hayotga moslashishlarini imkoniyatlaridan foydalanishlarini chegaralab qo'yadi: joylarda ko'pchilik alohida yordamga muhtoj bolalar butunlay ta'lim tizimidan chetlanib qolishmoqda.

2. Inklyuziv ta'lim va halqaro huquqlar.2s

BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan «Bola huquqlari to'g'risidagi»gi Konventsiyasi hamma bolalarni, shu qatori maxsus ehtiyojli bolalar huquqlarini ham himoya qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Aynan 2, 23, 28, 29 - moddalarda maxsus ehtiyojli bolalar huquqlari belgilangan.

Salamanka bayonoti va ish faoliyati rejasi inklyuziv ta'lim bo'yicha halqaro miqiyosidagi hujjatdir.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish ularning haq-huqularni ta'minlash maqsadida Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya maxsus ehtiyojli bolalarni huquqlarni ta'minlaydigan asosiy huquqiy me'yoriy hujjatini Salamanka bayonoti va ish faoliyati rejasi inklyuziv ta'lim bo'yicha halqaro miqiyosidagi hujjatlar bilan tanishish va ularni amaliyotda qo'llash

3. Inklyuziv ta'limni butun jahonda e'tirof etilishining mohiyati va bu ta'lim tizimining hamma uchun ochiqligi

.2s

Inklyuziv ta'limni butun jahonda e'tirof etilishining mohiyati va bu ta'lim tizimining hamma uchun ochiqligi maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish ularning haq-huqularni ta'minlaydi. Shuning uchun Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya maxsus ehtiyojli bolalarni huquqlarni ta'minlaydigan asosiy huquqiy me'yoriy hujjatlarini o'rganish.

4. Inklyuziv ta'limning barcha jihatlarini (salbiy-ijobiy) va natijalarini amaliy o'rganib chiqish. 2 s

Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etish.

5. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishdagi yangi yo'nalishlar va islohotlar, muammolar va to'siqlar.

Salbiy munosabat;Hamjamiyatda ko'rinmaslik;Moddiy mablag' muammolari;Jismoniy moslashtirish;Sinfidagi o'quvchilar soni;Qaramlik;Jinsiy belgilarga qarab kamsitish;Favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar.

6. Inklyuziv ta'lim bo'yicha ish tajribalarini o'rganish. (Xalqaro miqyosidagi va O'zbekistondagi).

Mavzu bo'yicha bilim va ko'nikma hosil qilish. Sxemalar.

Farg'ona viloyatidagi inklyuziv ta'lim tajribasini o'rganish.Xorazm viloyati inklyuziv ta'lim tajribasini o'rganish.“Inklyuziv ta'lim orqali bolaga do'stona munosabat o'rnatish” loyihasining mazmuni

7. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash.

Ota-onalar qishloq sharoitida yordamga muhtoj bolalariga talab darajasida yordam ko'rsatish imkoniyatiga yega yemas. Birinchidan, moddiy tomondan imkoniyat cheklanganligi, ikkinchi tomondan yesa, yordamga muhtoj bolalarning go'dakligidan ularning nuqsonlarini aniqlash uchun o'qituvchi va psixologlarning malakasi talab darajasida emas.Shuning uchun ularga nazariy va amaliy yordam ko'rsatish.

Ko'chma mashg'ulot

1. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.2s

Inklyuziv ta'limga maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni jalb etish uchun umumiy quyidagicha bosqichlarni bosib o'tmoq lozim:

1. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni izlab topish va yordam berish.
2. Inklyuziv ta'limni olib borish.
3. O'qituvchilarni tayyorlash.
4. Boshqarish va maslahatlar berish kabilar

2. Inklyuziv ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash siyosati2s

O'qituvchilarga nogiron bolalar, ularning toifalari, nogiron bolalarga korreksion-ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi yondoshuvning yo'llari metodlari xususida batafsil ilmiy bilimlar berish; nogiron bolalarga nisbatan ularda ijobiy munosabat uyg'otish; maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning huquqlari bilan doimiy tanishib borishlari uchun o'qituvchilarga sharoit yaratib berish zarur.

3. Inklyuziv ta'lim tamoyillari. Inklyuziv ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash siyosati.

Tamoyillarning bir-birii bilan bog'liq va farqli tomonlarini o'rganish.

Inklyuziv ta'limning ye'tirof etilishi.Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. Malakaviylik tamoyili.

O‘qitish shakllari

Mazkur modul ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha tinglovchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga tinglovchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Tinglovchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga tinglovchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda tinglovchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan tinglovchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Tinglovchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi tinglovchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod tinglovchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.


“Aqliy hujum” metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Tinglovchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir tinglovchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Tinglovchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlari so'raladi;
2. Tinglovchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Tinglovchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi tinglovchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- tinglovchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- tinglovchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati

mavjud;

- tinglovchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- O‘qituvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- O‘qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI - tinglovchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda tinglovchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda o‘qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Tinglovchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. O‘qituvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha tinglovchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.


«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz tinglovchilar bo‘lganligi sababli kuchli tinglovchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan tinglovchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida

joylashtirish kerak. Bu har bir tinglovchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va tinglovchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir tinglovchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan tinglovchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa tinglovchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan

“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.

2. O‘qituvchi tinglovchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir tinglovchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha tinglovchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Tinglovchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Tinglovchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan tinglovchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi tinglovchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan tinglovchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi tinglovchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan tinglovchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan tinglovchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali tinglovchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda tinglovchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa tinglovchilar bergan javoblarini baholashlari va o‘qituvchi ham tinglovchilarni ob‘yektiv baholashi mumkin.

“ISHBOP O‘YIN” METODI - berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning

bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolga maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

“Ishbop o'yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo'riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta'lim oluvchilarni o'yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.
5. Ta'lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o'yinni amalga oshiradilar. Ta'lim beruvchi o'yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O'yin yakunida ta'lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.


Har bir rolni ijro etuvchi o'z vazifasini to'g'ri bajarishi, berilgan vaziyatda o'zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko'rsata olishi kerak.

“ROLI O'YIN” METODI - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o'yin” metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o'yin” metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o'yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o'yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o'yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o'yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim

oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

“BAHS-MUNOZARA” METODI - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o'zaro hurmat.

“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagan, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“LOYIHA” METODI - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo’yicha axborot yig’ish, tadqiqot o’tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo’lishi mumkin, lekin har bir loyiha o’quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha o’rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo’lishi kerak. Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.

“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo’yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig’adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo’yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo’yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

III. NAZARIY MATERIALLAR

"Ko'zni yum, ko'zga aylansin ko'ngil"

RUMIY

1-mavzu: Inklyuziv ta'lim kursining predmeti va vazifalari.

Reja:

1. Inklyuziv ta'lim haqida tushuncha.
2. Integratsilashgan ta'lim va inklyuziv ta'lim o'rtasidagi farqlar.
3. "Inklyuziv ta'lim" kursining predmeti va maqsadi.
4. Kursning vazifalari.

Adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.
2. Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim"- "Opereyshen Mersiy" Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
3. "Maktablr hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" -2002 yil.
4. "Dakarskie ramki deystviy"- YUNESKO-2000 yil. Frantsiyada chop etilgan.

Respublikamizda olib borilayotga barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustaxkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, etuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga etkazish natijasida yaratiladi. SHuning uchun ham «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormokda.

Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muasasalarida kondirib bulmaydi degan taxminlar asosida kurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. SHuningdek, ularning o'z oilasidan uzokda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib koladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmokdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga kura maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmokda.

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda etarli emas. «Inklyuziv» va «integratsiyalashgan» atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Integratsiyalashgan ta'lim bu-dikkat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qoraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bulmagan bolalar urtasidagi jismoniy farkni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) Funktsional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funktsional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab – quvvatlaydi.

G) Jamiyatga integratsiya qilish kabilar.

Integratsilashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud:

Umumta'lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo'lmaydi.

Umumta'lim maktab pedagogi maxsus maetodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi.

Umumta'lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalari bo'lmaydi.

Sinfda o'quvchilar soni 25 tadan-35 gacha etadi va oqibatda ularning barchasiga ko'p vaqt ajrata olmaydi.

Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo'lmaganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsilashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va xarakat dasturi bilan farqlanadi.

Inklyuziv ta'lim bu -davlat siyosati bo'lib, nogron va sog'lom bolalar o'rtasidagi tusiqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muxtoj bolalarni normal

rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi. SHuning uchun ham ahamiyatlidir. Oliy ta'lim tizimiga kiritilgan «Inklyuziv ta'lim tizimida rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish xususiyatlari» kursi inklyuziv ta'lim tizimining mohiyati, mazmuni, maqsadi va jabxalarini ochib beradi va bu haqidagi nazariy ma'lumotlar bilan talabalarni qurollantiradi.

«Inklyuziv ta'lim tizimida rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish xususiyatlari» kursining predmeti inklyuziv ta'lim tizimi va uning mazmunidan iborat.

Bu kurs o'zining mazkur predmetiga asoslangan holda maqsad qo'yadi. Mavjud maqsadlari shundan iboratki, bu kurs inklyuziv ta'limning mazmun mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda kerakli tavsiyalar ham ishlab chiqadi. Tavsiyalarda barcha bolalarning ta'lim olish muhitini o'rganib maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy ehtiyojlariga umumiy baho beriladi. Asosiy ma'no shundaki, sog'ligining yomonlashuvi yoki rivojlanishining orqada qolishi sababli aloxida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ham umumiy ta'lim jarayoniga kushish mumkin. Inklyuziv ta'lim ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi (o'quv rejasini emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar xar xil sharoitda o'qiydi, rivojlanadi, ma'lumotni xar xil tezlikda qabul qiladi degan e'tirofga asoslanadi. Ular xar bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim muxitini yaratib berishga qaratilgan.

Mazkur tavsiyalarning maqsadi - maktablarni maxsus ehtiyojli bolalarning ehtiyojlariga javob beradigan kilib moslashtiradigan jarayonni qo'llab-quvvatlash. «Moslashtirish» deganda nafakat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemalol borib kelishi, balki shu qatnashdan kandaydir foyda olishi va optimal o'quv rejasining mavjudligidir. Maktab muxiti moslashuvchan bulib, bola ta'limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin kilinmasdan, aloxida xar bir bolaning ehtiyojlarini kondirishi kerak.

«Inklyuziv ta'lim» kursi o'z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

- talabalarga inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;
- inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;
- inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni xal etish yullarini izlab topish;
- inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning asoslarini o'rganish;
- inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini taxlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasidagi nazariy, amliy va huquqiy axvolni o'rganish;
- inklyuziv ta'lim muasasalarining makasad va vazifalarini belgilash;
- resurs o'qituvchinig ish faoliyati va maqsadi bilan tanishish;
- inklyuziv ta'lim muasasalarining xodimlari vazifalari bilan tanishish;
- inklyuziv ta'lim muasasalari mutaxassislarining ota-onalar bilan hamkorligining yo'lga qo'yilganlik darajasini aniqlash;

-inklyuziv ta'lim muassasalarida olib borilayotgan isloxotlarni o'rganish;
-inklyuziv ta'limga jalb qilish boskichlarini, amaliyotga joriy etish yo'llarini o'rganish, ish tajribalarini taxlil qilish kabilardan iborat.

SHunday qilib «Inklyuziv ta'lim» kursi o'zining mavzu doirasida maqsad va vazifalarini hal qilish asosida talabalarni inklyuziv ta'lim buyicha mukammal bilimlar bilan kurollantiradi.

Sinov savollari

2-MAVZU: . Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari va ularning mazmuni.2s

Inklyuziv ta'limga maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni kiritishda bir qator jahon miqyosida e'tirof etilgan, amal qilinadigan va amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillariga tayaniladi:

- imkoniyatdan keng foydalanish;
- jamiyat hayotida qatnashishi huquqi;
- inklyuziv ta'lim jarayonida nogiron bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- ta'limning sifat va samaradorligi;
- hamkorlikda ishlash tamoyili;
- inklyuziv ta'limni joriy qilishda jahon tajribasini o'rganish tamoyili va boshqalar.

Adabiyotlar:

1.Ture Yonson tomonidan tayyorlangan -"Inklyuziv ta'lim" "Opereyshen Mersiy" -Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.

2. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YUNESKO-2004yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.

3."Maktablr hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" tomonidan chop etilgan -2022 yil.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2).Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7). Malakaviylik tamoyili.

- 1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalrni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab

davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. YA'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

2). Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. SHuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

"Bog'lanish"-bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. YAngi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A). Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B). Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga jaqvobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatilarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqil berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korrektsiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

7). Malakaviylik tamoyili.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Sinov savollari

3-mavzu: Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.

Reja: Генлар

- 1). Izlab topish va jalb qilish bosqichi.
- 2). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'ullanish bosqichi.
- 3). Rehabilitatsiya bosqichi.
- 4). Intergatsiya bosqichi.

Adabiyotlar:

1. Ture Yonson-"Inklyuziv ta'lim" -"Opereyshen Mersiy"- Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
2. "Dakarskie ramki deystviy"- YUNESKO-2000 yil. Frantsiyada chop etilgan.
3. "Проблемы в кlyucheniya detey so spetsальными образовательными потребностями в obsheобразовательны protsesse" Материалы respublikanskogo seminar Almaty.- Алматы «Raritet» 2002 yil.

- 1). Izlab topish va jalb qilish bosqichi.

Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalab qo'yishlar bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular

hamjamiyatdan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshfalardan bекitish hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibo-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham maktab ta'lim-tarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. SHunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingan bolalar o'z yaqin arofidagi umumta'lim maktablariga jalb etiladi.

2). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichi. Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasi tuzib chiqiladi.

3). Reabilitatsiya bosqichi. Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. SHu sababali bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular "ob'ekt" emas, balki "sub'ekt" vazifasini o'taydi. Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilisha qodir ekanligi diqqat markazda turadi.

4). Intergatsiya bosqichi. Bu bosqich inklyuziv tarzida o'qitilgan, reabilitatsiya jarayoni malga oshirilgan nogiron bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integratsiya bosqichida nogiron bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. YA'ni bu bosqichda nogiron bolalarning ham o'zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

«Men o'zimdan boshqa barcha narsani bilaman».
F.Viyon.

4-mavzu: Inklyuziv ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash siyosati.

Reja:

- 1). Inklyuziv ta'lim tizimida zaruriy islohotlar mazmuni.
- 2). Kadrlar islohotida inklyuziv sinf o'qituvchisining vazifalari.
- 3). Inklyuziv ta'limda tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etish.
- 4). Inklyuziv ta'limda psixolog va shifokor-pediatric (psixonevrolog) ning faoliyati.

Adabiyotlar:

1. "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"- XTV 234-sonli buyrug'i- 2005 yil 19 sentyabr.

2. Ture Yonson -"Inklyuziv ta'lim"- "Opereyshen Mersiy" -Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.

3."Dakarskie ramki deystviy"- YUNESKO-2000 yil. Frantsiyada chop etilgan.YUNESKO - 1999 yil.

4. "Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasi-Toshkent-2003 yil.

5."Проблемы в кlyucheniya detey so spetsальными образовательными потребностями в obsheобразовательный протсесе" Материалы respublikanskogo seminaru Алматы.- Алматы «Raritet» 2002 yil.

6."Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent-2005 yil.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. SHu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning ikoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra "Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi" fikri bilan ham tasdiqlash mumkin.

Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. SHu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Umum ta'lim" va "maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi "Inklyuziv maktab"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.

Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarish mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. SHu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilar hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Inklyuziv ta'lim quyidagi shart-sharoitlarda tashkil etilishi mumkin: ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktab

sinflari (guguhlari)da umumiy va alohida yordam olish, logoped xonalarida korreksion pedagogik yordam olish, korreksion sinf (guruh)larda maxsus ta'lim olish shaklida.

Inklyuziv ta'lim tizimiga maxsus yordamga muhtoj bolalarni viloyat (shahar, tuman) halq ta'limi bo'limlari tomonidan tibbiy-psixologo-pedagogik komisiya faoliyatida "Respublika, viloyat, tuman tibbiy- psixologo-pedagogik komissiyalar to'g'risida"gi Nizom asosida qabul qilinadi.

Umumta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy qilishda muassasa hodimlarini ish vazifalarida ham ko'zga ko'rinarli darajada islohotlar amalga oshirishi kerak.

2).Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra ma'suliyat bilan ishlashni talab etadi. SHuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasni olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim muassasa Ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda

- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korrektsiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;

- bolalarni faolligini, ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;

- diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchikovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

- o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'rin egallaydi.

3).Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. SHuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim.

4). Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilkalarini bartaraf etish va korrektsiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Inklyuziv ta'lim muassasasi shifokor-pediatrici

(psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

SHunday qilib, inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim - tarbiya jarayoni har tomonlama amalga oshirilgan islohotlar asosidagina samarali kechadi.

5-mavzu: Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limiga jalb etishda o'quv reja dastur va darsliklarini moslashtirish.

Reja:

1). Jahon miqiyosida inklyuziv ta'limni jiroiy qilish oldida turgan muammolar.

2). O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni jiroiy qilish oldida turgan muammolar.

3). Mavjud muammolarning echimlari.

Adabiyotlar:

1. "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"- XTV 234-sonli buyrug'i- 2005 yil 19 sentyabr.

2. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YUNESKO-2019 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.

3. "Maktablar hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" tomonidan chop etilgan -2022 yil.

4. "Проблемы в инклюзии детей со специальными образовательными потребностями в общеобразовательный процесс" Материалы республиканского семинара Алматы.- Алматы «Раритет» 2022 yil.

1). Inklyuziv ta'lim tizimi jahon miqiyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko'plab muammolar va to'siqlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Salbiy munosabat;

Hamjamiyatda ko'rinmaslik;

Moddiy mablag' muammolari;

Jismoniy moslashtirish;

Sinfdagi o'quvchilar soni;

Qaramlik;

Jinsiy belgilarga qarab kamsitish;

Favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar.

Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim muassasalari tizimida ta'lim tarbiya olaishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, umumta'lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto

maxsus ehtiyojli bolalarning o'zlaridagi umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto'g'ri fikr, ular to'g'risida ma'lumotlarning etishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o'sganligi va boshqalardir.

Hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko'pincha ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq bektiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko'rsatmaydilar, ro'yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to'g'risida hech bir ma'lumot berilmaydi. Natijada ko'plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo'ladilar. Ular to'g'risida hech bir ma'lumotni bo'lmasligi ta'lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi.

Moddiy mablag' muammolari. Jahon miqiyosida ko'pgina davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qitish juda qimmatga tushadi deb hisoblaydilar. SHuning uchun ham inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish masalasini hal qilmaydilar.

Jismoniy moslashtirish masalasi har bir davlatda mavjud bo'lib, bu mammo asosida maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga qatnashi masalasi yotadi. Maxsus ehtiyojli bola maktabga kelgandan so'ng u ko'pdlab muammolarga duch keladi, masalan, binoning ichkarisiga kirish, xonalar bo'ylab harakatlanish, hojatxonaga borish va hokazolar. Inklyuziv ta'limda jismoniy xavsizlik va qulaylik muhimdir.

Sinfdagi o'quvchilar soni muammosi. Sinfdagi o'quvchilar sonining ko'pligi ko'plab davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuzivlikka to'sqinlik qiladi. Rivojlangan davlatlarda har bir sinfdagi bolalar soni 30 tadan oshmaydi. Ammo rivojlanishdan orqada qolgan davlatlarda esa bir sinfdagi 60-100 nafar bolaning o'qishi oddiy holdir.

Qaramlik muammosi. YA'ni bunda maxsus ehtiyojli bolalarning ko'pchiligini doimiy ravishda boshqalar ko'magiga muhtojligini nazarda tutiladi.

Jinsiy belgilarga qarab kamsitish muammosi oqibatida ta'limda o'g'il bolalar va qiz bolalarning teng munosabatda bo'lmasligidir.

Favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar. Favqulotta vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar nafaqat nogironlik sababchisi, balki, maxsus ehtiyojli bolalarning zaifligini yanada chuqurlashtirishga sababa bo'ladigan omildir. Jahon miqiyosida esa hanuzgacha bu muammoning echimlari topilganicha yo'q.

2).Maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida respublikamizda ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Halqaro tashkilotlar YUNESKO, YUNISEF bilan hamkorlikda inklyuziv ta'lim bo'yicha 8 ta seminar, 6 ta trening-seminarlar va halqaro konferentsiyalar tashkil etildi.

Bugungi kunda 10 ta umumta'lim maktablarida 50 nafar bolalar inklyuziv sinflardda ta'lim olmoqdalar.

Olib borilayotgan ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta'limga jamoatchilik tashkilotlarining munosabati o'zgardi, ota-onalarning bolalariga e'tibori ortdi, ta'lim olishlar uchun qiziqishlari yanada ortdi.

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim

mussasalariga jalb etish, integratsiya asosida ta'limni tashkil etishning o'ziga xos muammolari va qiyinchiliklari bo'lsada u barcha mintaqalarda rivojlanib bormoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishning noan'anaviy boshqa shakllarini tashkil etishga ham harakat qilinmoqda.

Amalga oshirilgan ma'lum bir darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo'lgan quyidagi muammolar ham mavjud:

- ota-onalar uchun nogiron bolalarni o'qitish tizimi, inklyuziv ta'lim tizimi haqidagi o'quv qo'llanmalarining yo'qligi;

- maxsus ehtiyojli bolalarni uyda o'qitish uchun mutaxassislarning mablag' bilan ta'minlash tizimining joylarda talab darajasida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

- inklyuziv ta'limni joriy qilish bo'yicha davlat normativ hujjatlarida qayd etilmaganligi;

- nogiron bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqasi yo'qligi;

- nogiron bolalarni maktabga kelishi uchun transport bilan ta'minlash masalalari;

- chekka qishloqlardagi tashxisning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

- nogironlar aravachalari, qo'ltiq hassalar, eshituv apparatlari, ko'zoynaklar, travmvtologik poyafzallarning etishmasligi;

- davlat tomonidan kasb-hunarga yo'altirish, ish bilan ta'minlash, muammolari to'laqonli hal qilinmaganligi;

- nogiron bolalarga qarovchi ota-onalar uchun nafaqaning yo'qligi;

- tevarak-atrof muhitini nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabati;

- nogiron bolalar bilan ishlash mahallalarda yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati etarli emasligi;

- nogiron bolalarning ota-onalaridagi huquqiy bilimining etarli emasligi va davlat tomonidan belgilangan imtiyozlarni bilmasligi;

- ta'lim muassasalari uchun kadrlarning etarli emasligi;

- inshoatlarning maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi;

- malaka oshirish tizimida umumta'lim pedagoglarini maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash ishlari talab darajasida emasligi va.h.k

3).YUqorida keltirilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi masalalar o'z echimini topish kerak. Ular:

1. Huquqiy yo'nalishda:

"Ta'lim tug'risida"gi Qonunga Inklyuziv ta'lim haqida modda kiritish;

Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni ijtimoiy va korreksion pedagogik jihatdan qo'llovchi qonun loyihasini tayyorlash;

"Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarning uzluksiz ta'lim Nizomini tasdiqlash;

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonli bolalar va o'smirlarni uzluksiz inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish;

-Inklyuziv ta'limni qo'llovchi moliyaviy man'ba mexanizmini aniqlash, uni qonuniy jihatdan himoyalash;

- "Nogironlarni ijtimoiy himoyalash" haqidagi Qonunning bajarilishi yuzasidan takliflar tayyorlash.

2. Ilmiy-metodik yunalishda:

- Imkoniyati cheklangan bolalarga yagona korrektsion yordam tizimi Kontsepsiyasini ishlab chiqish;

- Metodik majmualar (dastur, darslik, o'kuv reja metodik qo'llanma; va tavsiyalar) yaratish;

- Yangi tahrirdan chiqqan DTSlarini maxsus ta'limga moslashtirish, shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim maktablarida ta'lim olishlarini inobatga olgan xolda inklyuziv maktabga mos keluvchi variativ o'quv rejalarini ishlab chiqish;

- Respublikadagi imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning korrektsion yordamga yo'naltirilgan yagona ma'lumotlar bazasini yangi zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida yaratish.

3. Boshqaruv yo'nalishida:

- Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan aloqador turli tashkilotlar, bo'limlarni birlashtirib turuvchi, muvofiklashtiruvchi markaz yaratish;

- Davlatlararo kupqirrali rivojlantirishni ta'minlash; (seminarlar, anjumanlar uyushtirish, ish tajriba almashish, jurnallar chop etish va xakozo).

- Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni ijtimoiy moslashish va rehabilitatsiya qilish bosh muvofiklashtiruvchi respublika ilmiy-amaliy markazini tashkil etish.

4. Maktab yo'nalishida:

- Inklyuziv ta'limni amaliyotga tadbiq etishda moliyaviy ta'minot va xususiy manba'lardan foydalanishni kengaytirish;

- Inklyuziv maktab uchun kerakli moddiy texnik ba'zani o'rganish bo'yida takliflar kiritish.

AMALIY MAS'HG'ULOT ISHLANMASI



1-AMALIY MASHG'ULOT

1.Mavzu: Inklyuziv ta'limning mohiyati. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va uning sabablari

Maqsad: Tinglovchilarga hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka yerishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi ya'ni inklyuziv ta'lim sistemasi haqida ma'lumotlar berish. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda yeng dolzarb masalalar sirasiga aylanib borayotganligini haqida tushuncha berish.

Mashg'ulotni o'tkazish rejasi.

I. Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish.

- 1.Inklyuziv ta'lim haqida tushuncha.
- 2.Integrasilashgan ta'lim va inklyuziv ta'lim o'rtasidagi farqlar.
- 3.“Inklyuziv ta'lim” kursining predmeti va maqsadi.
- 4.Kursning vazifalari

II. Amaliy topshiriqlar.

1. Jismoniy integrasiya.
2. Funksional integrasiya.
3. Ijtimoiy integrasiya.
4. Jamiyatga integrasiya qilish.
5. Viloyatimizdagi inklyuziv ta'lim bog'chalar va maktablar haqida ma'lumotlar to'plash
6. Didaktik materiallar turlari bilan tanishtirish va tayyorlash.

III. Adabiyotlar.

1. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun.
3. Ture Yonson “Inklyuziv ta'lim”-“Opereyshen Mersiy” Toshkent-2003-y O'qituvchilar uchun qo'llanma
4. “Maktablar hamma uchun”- “Bolalarni qutqaring jamg'armasi” -2002 yil.
5. “Dakarskiye ramki deystviy”- YuNESKO-2000 yil. Fransiyada chop yetilgan.

Jismoniy integrasiya.	Funksional integrasiya.	Ijtimoiy integrasiya.	Jamiyatga integrasiya qilish.

2 – Mavzu: Inklyuziv ta'lim va xalqaro xuquqlar.

Maqsad: Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish ularning haq-huqularni ta'minlash maqsadida Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya maxsus ehtiyojli bolalarni huquqlarni ta'minlaydigan asosiy huquqiy me'yoriy hujjatini Salamanka bayonoti va ish faoliyati rejasi inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro miqyosidagi hujjatlar bilan tanishish va ularni amaliyotda qo'llash

Jih'ozlar: Markaziy va periferik nutq apparatini tasvirlovchi plakat va rasmlar.

Mashg'ulotni o'tkazish rejasi.

I. Talabalar bilimini tekshirish.

- 1). "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"da inklyuziv ta'lim masalalari va maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqlari.
- 2). Salamanka bayonoti va Ish faoliyati Rejasi-inklyuziv ta'limning me'yoriy asosi sifatida.
- 3). Dakar Deklaratsiyasi va uning mazmuni.

II. Amaliy topshiriqlar.

1. Maxsus muassasalarga va inklyuziv ta'lim muassasalariga borganingizda bolalar diqqatini tekshiring va kartasini to'ldiring.

III. Adabiyotlar.

1. Ture Yonson-"Inklyuziv ta'lim" "Opereyshen Mersiy"- Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
2. "Maktablar hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" tomonidan chop etilgan -2002 yil.
3. "Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"-Toshkent- 1999 yil.
4. "Dakarskiye ramki deystviy"- YuNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan.
5. "Проблемы в ключении детей со специальными образовательными потребностями в общеобразовательный процесс" Материалы республиканского семинара Алматы.- Алматы «Раритет» 2002 yil.
6. "Xalqaro forum materiallari"-Toshkent - Respublika bolalarni ijtimoiy adaptasiyalash - 2015 yil.
7. "Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2015 yil.
8. 9.R.Shomaxmudovanning "Inklyuzivnoye obrazovaniye-Inklyuzivnomu obshchestvu" nomli maqolasi -"Uchitel Uzbekistana", 2021 yil.

3 – Mavzu: Inklyuziv ta'limni butun jahonda e'tirof etilishining mohiyati va bu ta'lim tizimining hamma uchun ochiqqligi

Maqsad: Inklyuziv ta'limni butun jahonda e'tirof etilishining mohiyati va bu ta'lim tizimining hamma uchun ochiqqligi maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish ularning haq-huqularni ta'minlaydi. Shuning uchun

Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya maxsus ehtiyojli bolalarni huquqlarni ta'minlaydigan asosiy huquqiy me'yoriy hujjatlarini o'rganish.

Jih'ozlar: Doska, bo'r, mavzuni yorituvchi plakatlari.

Mashg'ulotni o'tkazish rejasi.

I. Talabalar bilimni tekshirish.

- 1). "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"da inklyuziv ta'lim masalalari va maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqlari.
- 2). Salamanka bayonoti va Ish faoliyati Rejasi-inklyuziv ta'limning me'yoriy asosi sifatida.
- 3). Dakar Deklaratsiyasi va uning mazmuni

II. Amaliy topshiriqlar.

1. BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan «Bola huquqlari to'g'risidagi»gi Konvensiyasining qaysi moddalarini inklyuziv ta'limga tegishli.

III. Adabiyotlar.

1. Ture Yonson-"Inklyuziv ta'lim" "Opereyshen Mersiy"- Toshkent-2013 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
2. "Maktablar hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" tomonidan chop etilgan -2022 yil.
3. "Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"-Toshkent- 1999 yil.
4. "Dakarskiye ramki deystviy"- YuNESKO-2020 yil. Fransiyada chop etilgan.
5. "Problemy v klyucheniya detey so spetsialnymi obrazovatelnyimi potrebnostyami v obsheobrazovatelnyy prosese" Materialy respublikanskogo seminaru Almaty.- Almaty «Raritet» 2002 yil.
6. "Halqaro forum materiallari"-Toshkent - Respublika bolalarni ijtimoiy adaptatsiyalash - 2005 yil.
7. R.Shomaxmudovning "Inklyuzivnoye obrazovaniye-Inklyuzivnomu obshchestvu" nomli maqolasi -"Uchitel Uzbekistana", 2021 yil

4 – Mavzu: Inklyuziv ta'limning barcha jihatlarini (salbiy-ijobiy) va natijalarini amaliy o'rganib chiqish.

Maqsad: Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etish.

Jihozlar: Tablisa, sxemalar, rasmlar.

Mashg'ulotni o'tkazish rejasi.

I. Talabalar bilimni tekshirish.

1. Integratsiyalashgan ta'lim tizimi nima?
2. Inklyuziv ta'lim va Integratsiyalashgan ta'limning farqi?
3. Jismoniy integratsiya .
4. Funksional integratsiya.

5. Ijtimoiy integrasiya.
6. Jamiyatga integrasiya qilish.

II. Amaliy topshiriqlar.

1. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» ta'lim orasidagi farqlarni tushintiring.

III. Adabiyotlar.

1. Ture Yonson- "Inklyuziv ta'lim" - "Opereyshen Mersiy" - Toshkent-2023 yil.
O'qituvchilar uchun qo'llanma.
2. "Maktablar hamma uchun" - "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" tomonidan chop etilgan -2022 yil.
3. "Dakarskiye ramki deystviy" - YuNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan.
4. "Maktablarin olqishlab-inklyuziv maktablardagi nogiron o'quvchilar"-YuNESKO - 1999 yil.
5. "Проблемы в кlyucheniya detey so spetsialnymi obrazovatelnyimi potrebnostyami v obsheobrazovatelnyy prosese" Materialy respublikanskogo seminara Almaty.- Almaty «Raritet» 2022 yil.

5- Mavzu: Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishdagi yangi yo'nalishlar va islohotlar, muammolar va to'siqlar.

Maqsad: Mavzu bo'yicha tushuncha berish.

Jihozlar: Tablisa, sxemalar, rasmlar.

Mashg'ulotni o'tkazish rejasi.

I. Talabalar bilimni tekshirish.

1. Salbiy munosabat;
2. Hamjamiyatda ko'rinmaslik;
3. Moddiy mablag' muammolari;
4. Jismoniy moslashtirish;
5. Sinfdagi o'quvchilar soni;
6. Qaramlik;
7. Jinsiy belgilarga qarab kamsitish;
8. Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar.

II. Amaliy topshiriqlar.

1. Inklyuziv ta'lim orqali bolaga do'stona munosabat o'rnatish" loyihasining mazmuni.
2. Xalq talimi vazirligi tomonidan bajarilayotgan islohotlarga davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» tamoyillari haqida?

III. Adabiyotlar.

1. "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"- XTV 234-sonli buyrug'i- 2005 yil 19 sentyabr.
2. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar yehtiyojlarini anglash va bu

yehtiyojlarni qondirish” Toshkent-YuNESKO-2004 yil. O’qituvchilar uchun qo’llanma.

3.”Maktabl r hamma uchun”- “Bolalarni qutqaring jamg’armasi” tomonidan chop yetilgan -2002 yil.

4.”Проблемы в вкlyучениya detey so spesialnymi obrazovatelными potrebnostyami v obщeобразователный prosesse” Materialы respublikanskogo seminara Almatы.- Almatы «Raritet» 2002 yil.

6- Mavzu: Inklyuziv ta’lim bo’yicha ish tajribalarini o’rganish. (Xalqaro miqyosidagi va O’zbekistondagi).

Maqsad: Mavzu bo’yicha bilim va ko’nikma hosil qilish.

Jihozalar: Sxemalar.

Mashg’ulotni o’tkazish rejasi.

I. Talabalar bilimini tekshirish.

- 1). Farg’ona viloyatidagi inklyuziv ta’lim tajribasini o’rganish.
- 2). Xorazm viloyati inklyuziv ta’lim tajribasini o’rganish.
- 3).“Inklyuziv ta’lim orqali bolaga do’stona munosabat o’rnatish” loyihasining mazmuni.

II. Amaliy topshiriqlar.

1. Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etishdagi yondoshuv farqlari?

III. Adabiyotlar.

- 1.”Проблемы в klyучениya detey so spesalnymi obrazovatelными potrebnostyami v obsheобразователный prosese” Materialы respublikanskogo seminara Almatы.- Almatы «Raritet» 2002 yil.
- 2.R.Shomaxmudova maqolasi.”Razvitiye inklyuzivnogo obrazovaniya v Respublike Uzbekistan” -”Xabarshi vestnik”- Olmota-2005 yil. Jurnal-№2(7) 74-77 betlar.
- 3.”Ta’lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.
4. R.Shomaxmudovaning “Inklyuzivnoye obrazovaniye-Inklyuzivnomu obщestvu” nomli maqolasi -“Uchitel Uzbekistana”, 2001 yil.

7-Mavzu: Maxsus yordamga muhtoj bo’lgan bolalarni ta’lim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash.

Maqsad: Ota-onalar qishloq sharoitida yordamga muhtoj bolalariga talab darajasida yordam ko’rsatish imkoniyatiga yega yemas. Birinchidan, moddiy tomondan imkoniyat cheklanganligi, ikkinchi tomondan yesa, yordamga muhtoj bolalarning go’dakligidan ularning nuqsonlarini aniqlash uchun o’qituvchi va psixologlarning malakasi talab darajasida emas.Shuning uchun ularga nazariy va amaliy yordam ko’rsatish.

Jihozalar: Sxema va tablisalar, rasmlar.

Mashg’ulotni o’tkazish rejasi.

I. Talabalar bilimini tekshirish.

1. Maxsus yordamga muhtoj bo’lgan bolalarni ta’lim tizimiga jalb etishda ota-onalari bilan ishlash.

2. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda oilasi bilan ishlash.
3. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda jamoatchilik bilan ishlash.

II. Amaliy topshiriqlar.

1. Olib borilgan kuzatishlar asosida tavsiyalar ishlab chiqing.
2. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» da, «Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat nizomi», Xalq ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan «Ta'lim hamma uchun dasturi» kabilarda inklyuziv ta'lim masalalarining ko'rib chiqilishi haqida ma'lumotlar tayyorlash.

KO'CHMA MASHG'ULOT

1-mavzu: Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.

Reja:

- 1). Izlab topish va jalb qilish bosqichi.
- 2). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'ullanish bosqichi.
- 3). Reabilitatsiya bosqichi.
- 4). Intergatsiya bosqichi.

2-mavzu: Inklyuziv ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash siyosati^{2s}

O'qituvchilarga nogiron bolalar, ularning toifalari, nogiron bolalarga korreksion-ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi yondoshuvning yo'llari metodlari xususida batafsil ilmiy bilimlar berish; nogiron bolalarga nisbatan ularda ijobiy munosabat uyg'otish; maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning huquqlari bilan doimiy tanishib borishlari uchun o'qituvchilarga sharoit yaratib berish zarur.

3-mavzu: Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limiga jalb etishda o'quv reja dastur va darsliklarini moslashtirish.

o'quv reja va dasturlarni bola imkoniyatiga moslashtirish;

- bolani qiziqishi, iqtidorini e'tiborga olinishi;

- umumiy o'quv rejaga qo'shimcha o'quv rejalarini kiritishi;

- ta'limning boshqaruv tamoyiliga amal qilish;

- bolalarga bir xil ta'lim berish, yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga qo'shimcha ya'ni individual yordam berish;

- bolalarni imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda yuqori darajali o'qitishni tashkil etish;

- kerakli texnik vositalardan foydalanish mksadida ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkoniyatlar yaratish.

Nazorat savollari

1. Inklyuziv ta'lim nima?
2. Inklyuziv ta'lim kursining maqsadi, predmeti va vazifalari
3. Inklyuziv ta'lim va integrasiyalashgan ta'lim o'rtasidagi farqli bog'liqlik jihatlari nimalardan iborat?
4. Inklyuziv ta'limga bulgan extiyohlari va uning sabablari.
5. Inklyuziv ta'lim tizimida resurs pedagogning maqsad vazifalari.
6. Inklyuziv ta'limga doir xukukiy me'yoriy xujjatlar.
7. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.
8. Inklyuziv ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash.
9. Inklyuziv ta'lim tizimiga maxsus ehtiyojli bolalarni jalb qilish bosqichlari.
10. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda o'quv dasturi, dars darayoni va sinfxonani moslashtirish.
11. Inklyuziv ta'limni joriy qilishda imkoniyatdan keng foydalanish tamoyili va uning mohiyati.
12. Inklyuziv ta'limni joriy qilishda jamiyat xayotida katnashishi xukuki tamoyili;
13. Inklyuziv ta'limni joriy qilishda inklyuziv ta'lim jarayonida nogiron bolalarning uziga xos xususiyatlarini xisobga olish tamoyili.
14. Inklyuziv ta'limni joriy qilishda ta'limning sifat va samaradorligi.
15. Inklyuziv ta'limni joriy qilishda xamkorlikda ishlash tamoyili;
16. Inklyuziv ta'limni joriy qilishda jaxon tajribasini urganish tamoyili.
17. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish yullari.
18. Maxsus yordamga muxtoj bulgan bolalarni inklyuziv ta'limga kiritishda maktab jamoasi, sinf raxbari va ukuvchilar bilan ishlash.
19. Inklyuziv ta'lim tizimining salbiy va ijobiy jihatlarini tahlil qiling.
20. Inklyuziv ta'lim tizimining salbiy va ijobiy jihatlarini tahlil qiling.

Inklyuziv ta'lim fanidan test topshiriqlari.

1. "Dakarskiye ramki deystviy" qayerda chop etilgan?
A) Fransiya
B) Germaniya
C) Italiya
D) Angliya
2. "Inkluziv ta'lim" kursi o'z maqsadidan kelib chiqqan holda qanday vazifani hal etadi?
A) talabalarga inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish
B) inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish
C) inklyuziv ta'limni qo'llab quvvatlashning asoslarini o'rganish
D) hammasi javoblar to'g'ri
3. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida qancha bolalar ta'lim olishadi?
A) 20 nafar
B) 30 nafar
C) 50 nafar
D) 60 nafar
4. Yangi integratsiya inklyuziv sinfi qachon tashkil etildi?
A) 2003-yil
B) 2004-yil
C) 2001-yil
D) 2005-yil
5. Inklyuziv ta'limning loyihasi nechanchi yildan boshlangan?
A) 1999-yil
B) 1998-yil
C) 2000-yil
D) 2001-yil
6. "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat nizom" qachon tasdiqlangan?
A) 2001-yil 19-sentabr
B) 2002-yil 22-oktabr
C) 2005-yil 19-sentabr
D) 2003-yil 10-avgust
7. "Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi" degan fikr kim tomonidan yo'naltirilgan?
A) Vigotskiy
B) R. Shomahmudova
C) A. Hakimov
D) Devid Medchel
8. "Inklyuziv ta'lim" qachon ommaga targ'ib etilgan?
A) 2004-yil iyun
B) 2005-yil may
C) 2003-yil aprel
D) 2002-yil sentabr
9. "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" nechanchi yilda qabul qilingan?
A) 1988-yil
B) 1989-yil
C) 1992-yil
D) 1994-yil
10. Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashda qanday masalalarga e'tibor beriladi?
A) markazlashmagan tamoiilga
B) jamiyatda ijobiy munosabatni ishlab chiqishga
C) davlat tomonidan kasb-hunarga
D) boshqaruv yo'nalishiga

G L O S S A R I Y

1. Inklyuziv – atamasi (frantsuzcha inklusif - o'z ichiga oluvchi, lotincha

include - o'z ichiga olmoq, kiritmoq) — umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni bo'lib, ta'limning hammabopligini nazarda tutuvchi, barcha bolalarni turli xil ehtiyojlaridan kelib chiquvchi, alohida ehtiyojga va e'tiborga ega bolalarning ta'lim olishini ta'minlovchi ta'limning yangi shaklidir.

2.Alaliya – bolaning ona kornida yoki dastlabki rivojlanish boskichida nutk shakllanishiga kadar bosh miya kobigi nutk doirasining organik jaroxatlanishi okibatida uzliksiz rivojlanmay kolishdir.

3.Anomaliya – (grekcha anomalos – noto'g'ri, notekis so'zidan) – anatomik, fiziologik va psixik funktsiyalarning normal rivojlanmaganligiga asoslangan nuqson.

4.Asteniya-darmonsizlik, turli sabablarga ko'ra ruhiy jihatdan zaif bo'lib qolish.

5.B.S.F.- bolalar serebral falaji.

6. Defekt – nuqson , kamchilik.

7.Demensiya - bolaning hayot davomida turli bosh miya kasalliklari natijasida bilish jarayonining pasayishi.

8.Ekspressiv nutq – (exhressio –ifodalash so'zidan) – fikirni o'zgalarga bayon etish.

9.Ekspressiv nutq – (exhressio –ifodalash so'zidan) – fikirni o'zgalarga bayon etish.

Ekzogen tashqi.

10.Endogen-genetik

11.Impressiv nutq (lat.impressia – tassurot so'zidan)-o'zgalar nutqini idrok qilish, tushunishga asoalangan nutq turi.

12.Impresiv nutq (lat.impressia – tassurot so'zidan)-o'zgalar nutqini idrok qilish, tushunishga asoalangan nutq turi.

13.**Infantelizm**- organizmning o'sishdan to'xtab qolishi.

14.**Intelekt** – (lat. intellectus – tushunish ,tushuncha so'zidan)- insonning umuman bilish faoliyati; uning fikirlash qobiliyati, taffakuri, aqli.

15.**Intelekt** – (lat. intellectus – tushunish ,tushuncha so'zidan)- insonning umuman bilish faoliyati; uning fikirlash qobiliyati, taffakuri, aqli.

16.**Katarakta**–tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

17.**Kinesteziya** – tana yoki tana qismlari harakatini sezish.

18.**Kompensatsiya**-yuklash, o'rnini qoplash. Biror psixik funktsiya qisman yoki to'la ishdan chiqqanda, uning vazifasini boshqa kuchli rivojlangan sog' funksiyalar bajaradi.

19.**Korreksiya**- tuzatish, nuqsonni ta'lim- tarbiya orqali bilinmaydigan holga keltirish (yumshatish)

20.**Nutqning predikativ shakli** – jumlaning fe'llar, sifat va boshqa predikativlardan iborat bo'lishi.

21.**Olegorfreniya** – (grekcha)- aqli zaiflik. Bosh miyaning organik buzilishi natijasida bilish faoliyatining turg'un buzilishi.

22.Oligofren - bolaning ona qornida yoki ilk chaqaloqlik davrida bosh miyasi zararlanishi natijasida kelib chiqadigan aqli zaiflik.

23.**Proprioretseptorlar** – muskul- pay va bo'g'imlarda joylashgan to'qimalar.

24.Psixik rivojlanishi sustlashagn bolalar P.r.s. bolalar maktab sharoitiga ko'nikaolmay, maktab faoliyatiga kirisha olmaydilar, topshiriqlarni idrok qila olmaydilar va bajara olmaydilar.

25.Psixik rivojlanishi sustlashagn bolalar P.r.s. bolalar maktab sharoitiga ko'nikaolmay, maktab faoliyatiga kirisha olmaydilar, topshiriqlarni idrok qila olmaydilar va bajara olmaydilar.

26.Statik sezgilar-muvozanat sezgilari.

27.T.P.K. - tibbiy pedagogik komissiya

VI. FOYDANILADIGAN ADABIYOTLAR.

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Mamedov K., Shoumarov G. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent, 1994.
2. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995.
3. Penzullayeva L.I. 3,5–6 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari. T.: 1992.
4. Po‘latova F. Oligfrenopedagogika. T, 1997.
5. Raxmanova B.V. Maxsus pedagogika. T., 1991.
6. Sodiqova G.A., Nurkeldiyeva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma’ruzalar matni) T., 2001.
7. Usmonxo‘jayev T., F.Xo‘jayev. “1001 o‘yin”. T.:
8. Usmonxo‘jayev T.S. va boshqalar. “Jismoniy tarbiya va sport o‘yinlari. T.: 2003.

9. Shomaxmudova R. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish. T., 2001.
10. Xo'jayev F. va boshqalar. "Xalq milliy o'yinlari". T.: 2001.
11. Frolov V.G. Sayirda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, o'yinlari va mashqlari. T.: 1992.
12. Volkova G.A. Logopedicheskaya ritmika. Moskva. Prosvesheniye. 2003 g.
13. Logopediya (pod.red. Volkovoy L.S. i S'Haxovskoy S.N.) Moskva. 2003.
14. Filicheva T.B., Volkova L.S., CHirkina G., Muminova L., Ayupova M. Logopediya. Toshkent. O'qituvchi. 1993 yil.
15. Xrestomatiya po logopedii. (pod.red. L.S.Volkovoy i V.I.Seliverstovoy) Moskva. Vldos. 1997 yil.

1. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi
2. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet.
4. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.